



QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI
5-SON

KOKAND UNIVERSITY | 2022
HERALD | VOLUME №5

**QO‘QON
UNIVERSITETI
XABARNOMASI
5-SON**

**KOKAND
UNIVERSITY
HERALD
VOLUME 5**

**ВЕСТНИК
КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТ
ВЫПУСК 5**

5/2022

QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

Ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

G.E.Zaxidov

Bosh muharrir:

Sh.R.Ruziyev

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

A.A.Yusupov

Tahririyat hay'ati:

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., prof., Sh. I. Mustafakulov
3. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., K. Axmedjanov (KIUT)
11. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
12. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
13. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
14. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
15. F.f.n., dotsent D. Xodjayeva (QDPI)
16. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
17. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
18. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
19. I.f.n., dotsent, J. Qambarov (FarPI)
20. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
21. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
22. PhD., M.Najmiddinov (Qo'qon universiteti)

Qo'qon universiteti xabarnomasi

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnalı Qo'qon universiteti Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28 a-uy, 1-xonardon

© "Kokand University" – 2022

Mundarija:/Outline:

Iqtisodiyot / Economy			
1.	I. Foziljonov	Modern methods for forecasting cash flows	3-6
2.	D. Nuritdinova	Management of processes of implementation of state interactive services through information technologies	7-9
3.	Tsoy Marina.	The role of gender equality in poverty reduction and decent job creation - world experience and practice of Uzbekistan	10-13
4.	B. Turanboyev B. Rajabboyev	Puzzles involving the stock market, inflation and the predictability of stock market returns	14-17
5.	A. Bakirbekova	K вопросу об управлении человеческими ресурсами в международных компаниях	18-25
6.	J. Kambarov	Yangi sanoat inqilobini risk boshqaruviga ta'siri masalalari	26-29
7.	F. Mulaydinov	Sanoat korxonalari va biznes faoliyatida integratsion axborot tizimlari	30-35
8.	M. Diyarova	Qurilish sohasida kichik biznes sub'yeqtalarining innovasion faoliyati va uni tashkil etishning asosiy tamoyillari	36-39
9.	R. Toxirov	Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	40-43
10.	M. Boltayeva, A. Suyunov	Mamlakat iqtisodiyotida turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	44-46
11.	O. Ahmadjonov	O'zbekistonda islomiy moliya tizimini qo'llash istiqbollari	47-51
12.	M. Tojiyeva	Biznesni rivojlantirish samaradorligi hamda uni baxolashning uslubiy yondashuvlari	52-58
Pedagogika / Pedagogy			
13.	K. Kaziyev, Sh. Bisenova, F. Khamidullayev	Reflection as a quality for effective professional activities and self-development	59-63
14.	G. Umirova	Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o'rni va roli	64-66
15.	F. Berdibekova	Akmeologik yondashuv asosida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish	67-70
16.	M. Salayeva M. Djumabaeva	Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida kreativ faoliyatini rivojlantirish	71-74
17.	B. Ergasheva	Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi pedagogik muammo sifatida	75-77
18.	M. Baqoyeva	Maktabgacha katta yoshdagи tarbiyalanuvchilarda bilishga qiziqishni rivojlantirish texnologiyasi	78-81
19.	L. Axmadaliyev	Qayyumiy" asaridagi №3-16-fiqrالarning tazkira qo'lyozma va nashri o'rtasidagi matniy-qiyosiy tadqiqi	82-88
20.	S. Muxabbat	O'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy asoslarini takomillashtirish tarixiy-pedagogik zarurat sifatida	89-92
21.	A Tangriyev	Yosh dzyudochilarida tezkor-kuch qobiliyatining samaradorligini oshirish	93-95
Fizika / Physics			
22.	G. Nafasova	Bo'lajak fizika o'qituvchilarida mantiqiy kompetentliligin rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	96-97
23.	G'. Nafasov D. Abduraimov	Transversal izotrop jism uchun ikki o'lchovli termoelastik bog'liq masalani sonli modellashtirish va uning dasturiy ta'minoti	98-103
Lingvistika / Linguistics			
24.	M. Xolova O. Lolayeva	Lingvistikada orfografik tamoyillar va tahlillar	104-106

QAYYUMIY" ASARIDAGI №3-16-FIQRALARNING TAZKIRA QO'LYOZMA VA NASHRI O'RTASIDAGI MATNIY-QIYOSIY TADQIQI

Lochinbek Axmadaliyev Maxamadyusuf o'g'li,
O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeysi tayanch-doktoranti. nihcol95@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-dekabr 2022-yil	Mazkur maqola Po'latjon Qayyumiying "Tazkirai Qayyumi" asaridagi o'rinn olgan №3-16-fiqralarning tazkira qo'lyozma va nashri o'rtasidagi matniy-qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan.
Tasdiqlandi: 26-dekabr 2022-yil	Qiyoslash tazkiraning qo'lyozma va nashr variantlari o'rtasida amalga oshirildi. Tabdil va nashrdagi imloviy o'zgarishlar, uslubiy g'alizliklar, xato berilgan ma'lumotlar, tabdilda tushirib qoldirilgan o'rinnlar, akademik Aziz Qayumov tomonidan qo'shib ketilgan ma'lumotlar aniqlandi.
Jurnal soni: 5	
Maqola raqami: 19	
DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.224	
KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords	Tazkira, fiqra, matniy-qiyosiy tadqiq, qo'lyozma, nashr, tabdil, xattot, litografiya, adabiyotshunoslik, avtograf, muzey, maqola, arxiv.

Kirish. Tazkirananavitslik o'zbek adabiyoti tarixining muhim bir qismini tashkil etadi. Ayni paytda Sharq adabiyotida tazkirananavitslik uzoq an'anaga ega bo'lib, turli davrlar silsilasida tadirijiy takomil hosil qilgan. Tazkirananavitslar ushbu janrnii asrlar osha yashab kelishiga xizmat qilganlar. Mana shunday ulug' zotlardan biri Po'latjon domulla Qayyumiy mazkur an'anani XX asrning II yarmigacha yetib kelishida hissa qo'shgan olimlardan birdir. "Tazkirai Qayyumi" mumtoz adabiyotimizning XI-XII asrlaridan yashab faoliyat yuritgan shoir-u adiblarimizdan tortib to tazkira yozib tugallanayotgan vaqt (1960-yil aprel) da barhayot bo'lgan, muallifga zamondosh ijodkorlargacha, jami 324 nafar qalam ahillari hamda ularning samarali va mazmundor ijodlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tazkiranadan o'rinn olgan Sayfi Saroyi, Yusuf Amiri, Nosiruddin Rabg'uziy, Xorazmiy, Yunaqiy (Ahmad Yughnakiy), Ahmad Yassaviy, Mahmud Koshg'ariy, Durbek, Lutfiy, Atoyi, Sakkoki, Majlisiy, Qutbiy Xorazmiy, Shayboniy kabi mumtoz adabiyotimizning zabardast vakillariga bag'ishlangan fiqralarning tazkira qo'lyozma va nashri o'rtasidagi differensial tomonlarini kontekstual, qiyosiy tipologik, system-struktural metodlar asosida yoritishga harakat qilindi.

Tadqiqot natijalari. Olingen natijalar quyidagi besh guruhga klassifikatsiya qilindi:

1. Tabdilda tushirib qoldirilgan ma'lumotlar.
2. Tazkiranada xato berilgan ma'lumotlar.
3. Akademik Azizxon Qayumov qo'shib ketgan ma'lumot.
4. Qo'lyozma va nashrdagi uslubiy g'alizliklar.
5. Tabdil va nashrdagi imloviy farqlar.

Muhokama. Tabdilda tushirib qoldirilgan ma'lumotlar

1. "Muhabbatnoma"dagagi bayt: "Unutting bu Muhammadxo'jani, oh, Bizing ellilarga ata, yamon yo'q, ey jon" (Q – №5, 14. N – №5, 22).

2. "Muhabbatnoma"dan: "Ikkinchi nomasidan:" (Q – №5, 14. N – №5, 22).

3. "Shaybonynom" 1904 nchi yilda Peterburg', hozirgi Leningrod shaharida I.Baraganskiyning tifugrofiyasida boshdirilmishdur" ma'lumotini berishda "1904 nchi yilda Peterburg" jumlesi nashrdan tushib qolgan (Q – №17, 37. N – №17, 48).

Tazkiranada xato berilgan ma'lumotlar.

1. Mahmud Koshg'ariy haqida ma'lumot berishda: "Turk tilida 2 nchi kitob yozmish olim bo'lib, adabiyot torixida oldingi o'rinda turoduri", -deya qayd etadi (№9, 19. №9, 28). Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'ota-t-turk" asari arab tilida yozilgan va Nishopurda niyoyalangan. Uning boshqa bir, "Jahoviru-n-nahv fi-l-lug'ota-t-turk" asari hanuz topilganicha yo'q, lekin u ham arab tilida yozilgani olimlar tomonidan aytigan. Po'latjon Qayyumi faqatgina "Devon-u lug'ota-t-

turk" haqida to'xtalinganini hisobga olsak, bu yerda aynan shu asar xususida so'z bormoqda. Asar turkiy xalqlar tili, adabiyoti, etnografiyas haqida qimmatli ma'lumotlar bersa-da, biroq Qayyumi domla atyganidek, u turkiy tilda emas, balki arab tilida yozilgan.

2. Durbek faoliyati borasida: "I nchi martaba "Yusuf va Zulayho" dostonining o'zbek tiliga nazm etmisidur", -deydi (№10, 21. №10, 30). Olim bu yerda turkiy tilni nazarda tutmoqda. "Yusuf va Zulayho" dostoni ilk marotaba turkiy tilida Qul Ali Ohariy tomonidan yozilgan.

3. "Yusuf va Zulayho" dostoni borasida: "Nozim bu kitobining kirish so'zida bu "Yusuf va Zulayho" nomli mashhur sharq dostoni ko'p musulmon mamlakatlarda tarannum qilingan bo'lsa ham bu ajoyib ertakni bizim turkiy qavmi yaxshi bilmaydur", -deya keltiradi (№10, 21. №10, 30). Dastavval, shuni aytishimiz kerakki, "Yusuf va Zulayho" ertak emas, uning kelib chiqishi – qissa. Qu'oni Karimda nozil qilingan payg'amarlar to'g'risidagi 25 ta qissa ichida "eng go'zal qissa". Shuningdek, Qul Ali Ohariy, Nosiruddin Rabg'uziy kabi ijodkorlar mehnati sharofati bilan ushbu qissa turkiy xalqlarda keng tarqalgan. Qolaversa, arabiylar va forsiy manbalar, ageografik asarlari orqali (masalan, "Najhu-l-farodis"), eng avvalo, Qu'oni Karim va Hadisi Shariflar vositasida juda ham yaxshi tanish bo'lishgan.

4. "Yusuf va Zulayho" dostonida Zulayhoga nasihat maqsadida kelgan Misr amaldorlarining xotinlari haqida to'xtalinar ekan shunday deydi: "Bular ham Yusufni bir ko'rushdanoq hushdan ketib, sabzi to'g'rash o'rnida panjalarini kesib yuborganlari" (№10, 21. №10, 30). "Yusuf va Zulayho"ning ishqiy mojarosiga bag'ishlangan dostonlarda, inchunun, Durbek qalamiga mansub shu nomidagi asarda ham Zulayho so'z yuritilayotgan mazkur ayollarning qo'llariga go'sht berib, ularni to'g'rashga amr etadi. Shu payt Yusufga ichkariga kirishni buyuradi. Ular Yusufni ko'rgach, uning chiroyiga mahliyo bo'lishib, aql-hushlari boshidan uchib, go'sht o'rniga o'z qo'llarini kesganliklarini sezmay qolganlari aytildi.

5. Lutfiy fiqrasisida: "Boshda temuriyldardan Shohruh Mirzoning saroyida (1409-1446) xizmatda bo'ldi" (№11, 23.), -deyilgan ma'lumotdagil yillard 1404-1446-yillard etib o'zgartirilgan (№11, 32.). Aslida, Po'latjon Qayyumi bergan ma'lumot to'g'ri.

6. Lutfiy vafotini quyidagicha keltiradi: "So'ngra hayotining darveshona o'tkazib, Hirot shahariga yaqin bir qasabada 1548 nchi yilda 81 yoshindagi vafot etdi" (№11, 23). Ushbu ma'lumot A.Qayumov tomonidan quyidagi holatga keltirilgan: "So'ngra hayotining darveshona o'tkazib, Hirot shahariga yaqin bir qasabada vafot etdi". Lutfiy 1465-yilda 99 yoshida Hirot yaqinidagi o'z ona qishlog'i, Dehikanorda vafot etgan.

7. Lutfiy yashagan umr haqida yana quyidagi ma'lumotni beradi: "Hijriy ila 83 to'g'ri keladi. Tug'ish tarixida xatolik bo'lsa kerakdur" (№11, 23).

8. Shayboniyxon bag'ishlangan №11-fiqra, qo'lyozmaning 33-sahifasi, nashrning 45-betida O'zbekxonning vafotini 1340-yil deb bergen. O'zbekxon 1342-yilda olamdan o'tgani barcha tarixiy manbalarda tasdig'iini topgan.

9. Shayboniyxonning dunyoga kelishi haqida shunday yozadi: "XV asr milodiy mashhur kishisi bo'lgan bu kishi 1454 nchi yilda Turkistonda tug'uldi" (№16, 34. №16, 45). O'zbekiston tarixi bilan shug'ullangan barcha olimlar, xususan, mazkur davr bilimdoni, Qamariddin Usmonov ma'lumotlariha ham Shayboniyxonning 1451-yilda bobosi asos O'zbek ulusi davlatining poytaxti – Sig'noqda tug'ilganligi aytildi.

10. Shayboniyxon haqida: "1490 nchi yilda(n) boshlab, temuriylar bilan davlat tolashib, Muhammad Zahiriddin Boburning qo'lidan Samarqandning oladur", -deb yozadi (№16, 34. №16, 45). Shayboniyxon Samarqand taxtini ilk bora 1500-yilda Sultan Ali Mirzodan, uning onasi Zuhrobegini aldash orqali bosib oladi. Shu yilning o'zida Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining oz sonli askarları bilan qo'qqisidan hujum qilish orqali Samarqandni tortib oladi. Ikki o'rta 1501-yil 21-aprelda Saripul mavzeyida bo'lib o'tgan jangda Muhammad Shayboniyxon g'alaba qozonadi. Uzoq davom etgan qamaldan so'ng, Bobur Mirzo suluhi vositasida Samarqandni tashlab chiqib ketadi. Xulosa qilish mumkinki, Shayboniyxon Samarqandni Mirzo Boburdan 1501-yilda tortib olgan.

11. Shayboniyxonning Samarqandni egallagani haqidagi ma'lumotdan so'ng: "Buxoro, Toshkand, Farg'ona birin-ketin temuriylardan Shaybon o'zbeklari qo'liga o'todur", -deb yozadi (№16, 34. №16, 45). Buxoro muzofotini Shayboniyxon Samarqanddan oldin, 1499-yilda to'rt yuz nafar otliq yordamida egallagan.

12. Shayboniyxon to'g'risida fikrlarini davom ettirar ekan: "Xurosanni Husayn Boyqoro bobolarining qo'lidan hijriy ila 913 nchi yilda Hirot shaharini oladur", -deya qayd etadi (№16, 34. №16, 45). Shayboniyxon 1507-yilda Hirotni istilo qiladi. 1506-yilda Husayn Boyqaro 68 yoshida olamdan o'tib, Xurosonda qo'shhokimiyatchilik hukmron edi. Hirotda ham Badiuzzamon Mirzo, ham Muzaffar Mirzolar podshoh edi. Bir so'z bilan aytganda, Shayboniyxon Hirotni Husayn Boyqaroning o'g'llaridan tortib olgan.

13. Shayboniyxon vafoti xususida quyidagi ma'lumotni beradi: "Nihoyat, Xurosor idorasida, Eron shohi Ismoil Safavi bilan bo'lgan jangda 1505 nchi milodiyida 61 yoshinda o'dirildi (hijriy 916)" (№16, 34). A.Qayumov ushbu voqeя yuz bergan vaqtini 1511-yilga o'zgartirgan (№16, 45). Shayboniyxon 1510-yil 12-dekabrda Marv shahri yaqinidagi qishloqlarning birida Ismoil Safaviy hiylasiga aldanib 59 yoshida

o'ldirilgani, uning jasadiga qilingan humatsizliklar tarixchilar tomonidan o'z tasdig'iini topgan.

14. Shayboniy ijodi haqida uning quyidagi asarlari mavjud ekanini aytadi: "She'rda taxallusi "Shayboniy" bo'lub, turkiy va hatto, forsiy ash'orlari ham bor emish. "Mehmonnomai Buxoro" nomli va "Muzakkiru-l-ahbob" nomli asarida bor ekani xabar etiladur. "Muzakkiru-l-ahbob" shoir Nisoriyniki edi. Magar Shayboniyning shu ismda asari bo'lmishdur" (№16, 35. №16, 46). Shayboniyning she'rlaridan namunalar Fazlulloh ibn Ro'zbehxon Isfahoniyning "Mehmonnomai Buxoro" asarida hamda Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiru-l-ahbob" tazkirasida keltirilgani borasida shubha yo'q. Biroq, Shayboniyning o'z qalamiga mansub bo'lgan, aynan shu nomdag'i asarlari mavjud emas.

15. Shayboniyxonning she'rlaridan namunalar berishda quydigilarni uchratamiz: "Sug'd Samarqand viloyatining eranig I asarlardagi qadimli yoshovchilariga berilgan ism bo'lub, tojik xalqining qadimiy bobolaridur. Viloyatga qo'llaniladur. Bu tuyug' ular uchundur.

*Sug'd ichinda o'ltururlar yobular,
Yobularning mingan oti – yobular,
Yobularning ilgidin el timadi,
Yo bular bo'lsin bu yerda, yo bular.*

Mazkur tuyug' uzoq vaqt davomida Shayboniyxon qalamiga mansub deb kelingan. Biroq, adabiyotshunoslar tomonidan chuqur tadqiq etilishlar natijasida uning muallifi Shayboniy emas, balki uning jiyani, Buxoro xonligining asoschisi, Qul Ubaydiy taxallusi bilan arab, fors-tojik va turk tilarda birdek qalam tebratgan Ubaydullaxon ijodiga taalluqli ekanligi aniqlangan. Qolaversa, ushbu tuyuqda, asosiy e'tibor Sug'd xalqiga emas, otlarga qaratilgan.

Akademik Azixon Qayumov qo'shib ketgan ma'lumot.

1. Qo'lyozmada: "Sayfi Saroyi 793 nchi hijriyda fors shoiri shayx Sa'diyning mashhur asari bo'lmish "Guliston"ning o'zbek tiliga tarjima etmishdur", -deyligan. Nashrda uning milodiy hisobi chiqarilib, havola etib ketilgan: 1390-91 mil. (Q – №3, 10. N – №3, 19).

2. "Muhabbatnama" ikkinchi nomasida: "Salomimkim, ko'ngil jonona aytса" baytdagi "aytsa" so'zi uslubiy g'aliz bo'lib, nashrda "yetsa"ga o'zgartirilgan (Q – №5, 14. N – №5, 22).

3. "Muhabbatnama"da: "Og'ir uyquchi baxtim necha yotqay?" baytdagi "uyquchi" so'zi uslubiy g'aliz bo'lib, nashrda "uyquga" so'ziga o'zgartirilgan (Q – №5, 15. N – №5, 24).

4. "Hirot shahri hijriy ila 913 nchi yilda o'zbeklar tomonidan olindi" ma'lumotidagi hijriy yilning milodiy hisobi qo'shib ketilgan: 1507-1508-milodiy (Q – №16, 35. N – №16, 46).

Qo'lyozma va nashrdagi uslubiy g'alizliklar.

T/r.	Qo'lyozmadagi variant	Nashrdagi variant	Q/sahifasi	N/sahifasi
1.	"Ey, ko'rklilar xayoli ila mubtalo ko'ngil".	"Ey ko'rklilar hayli ila mubtalo ko'ngil".	№3, 10.	№3, 19.
2.	Rabg'uziy bu asari bilan tonilmishdur.	Rabg'uziy o'z asari bilan tanilmishdur.	№5, 11.	№5, 20.
3.	"Sening dardingga darmon hech yo'q, ey on".	"Sening dardingga hech darmon yo'q, ey on".	№5, 14.	№5, 22.
4.	"Tahayyurda o'zumdin qurtulayin"	"Tahayyurda uzumdin qurtulayin".	№5, 15.	№5, 24.
5.	bu kishi bu kishi Dashti qipchoqli bo'lub, o'g'uz turklaridandur.	Dashti qipchoqli bo'lub O'g'uz turklaridandur.	№8, 17.	№8, 26.
6.	"Yer ostiga qochib kirdim nodonlardin, Ilgim ochib, duo qiloy mardonlardin, G'arib jonim ming tasadduq donolardin, Dono topmay yer ostiga kirdim mano".	"Yer ostiga qochib kirdim nodonlardin, Dono topmay yer ostiga kirdim mano, G'arib jonim ming tasadduq donolardin, Dono topmay yer ostiga kirdim mano".	№8, 18.	№8, 27.
7.	"Avval, oxir xo'blar ketdi qoldim qoldim yalg'uz".	"Avval, oxir xo'blar ketdi qoldim yalg'uz".	№8, 18.	№8, 27.
8.	Ular havoda, xuddi suv yuzasidagi qayiqlar singari suzishadi.	Ular havoda, xuddi suv yuzasidagi qayiqlar singari suzishda.	№9, 19.	№9, 28.
9.	"Oy quyup oqlanub".	"Oy ko'rub oqlanub".	№9, 20.	№9, 29.
10.	"Quydi bulut yog'murni, Karib tutor oq to'rin".	"Kuydi bulut yomg'iri, Ko'rib tutor oq to'rin".	№9, 20.	№9, 29.
11.	5 bobidan namuna.	5 nchi bobidan namunasi.	№9, 20.	№9, 29.
12.	"Ko'zim yoshin yamladi".	"Ko'zim yoshin namladi".	№9, 20.	№9, 29.
13.	Shu bilan ko'z yoshlaringa davo qildi.	Shu bilan ko'z yoshlariqa davo qildi.	№9, 20.	№9, 30.
14.	Zulayhoning Yusufga oshiqi beqaror bo'lgani hammaga ayon bo'lub ketganidan Misr shaharining amaldor beklari-ning xotunlari Zulayhoga nasi-hat etib, bu ishdan qaytarish maqsadida saroya kelganlari.	Zulayhoning Yusufga oshiqi beqaror bo'lgani hamaga ayon bo'lub ketganidan Misr shaharining amaldor beklarinining xotunlari Zulayhoga nasihat etib, bu ishdan qaytarish maqsadida saroya kelganlari.	№10, 21.	№10, 30.
15.	"Seni qilib ayb, bu xalqi jahon".	"Seni qilib ayb, bu xalqi jahon".	№10, 22.	№10, 31.
16.	"Barcha o'shal bo'lub g'arq xun".	"Barcha o'shal lahza bo'lub g'arqi xun".	№10, 22.	№10, 31.
17.	"Tuzdi Zulayho yana ohan-la so'z".	"Tuzdi Zulayho yana ohangi so'z".	№10, 22.	№10, 32.

18.	"Qolmish "ayn", "mim", "ro" larni yozsak, "Umar" bo'la-durki, Lutfiyning nomi Umar bo'lub chiqodur".	"Qolmish (harf) larni yozsak, "Umar" bo'ladurki, Lutfiyning nomi Umar bo'lub chiqodur".	№11, 23.	№11, 32.
19.	Temuriylardan Mirzo Ulug'-bek saroyi turgani, unga yoqin bo'lgani, unga bog'ishlab yozgan qasidalaridan ma'lum bo'ladur.	Temuriylardan Mirzo Ulug'bek saroyida turgani, unga yaqin bo'lgani, unga bag'ishlab yozgan qasidalaridan ma'lum bo'ladur.	№13, 27.	№13, 37.
20.	"Hech davo yo'q dardkim, jonimda bor oni ko'rub".	"Hech davo yo'qdurmikim, jonimda bor oni ko'rub".	№13, 27.	№13, 38.
21.	"Bori ul qottig' ko'ngilliq chinmu yolg'on yig'ladi".	"Bori ul qottig' ko'ngillik chin bu yolg'on yig'ladi".	№13, 28.	№13, 38.
22.	"Xos-u, omu, shahar-u dayr, dono-yu nodon yig'ladi"	"Xos-u, omu, shayxro dayr, dono-yu nodon yig'ladi"	№13, 28.	№13, 38.
23.	Majlisiy – bu kishi XVI asr milodiyya nozimlardan bo'lub, Buxoro atrof o'zbeklari-dandur.	Majlisiy – bu kishi XVI asr milodiyyagi nozimlardan bo'lub, Buxoro atrof o'zbeklardan-dur.	№14, 28.	№14, 38.
24.	"Yana jannatni huridan ketursang".	"Yana jannatni xuridni ketursang".	№14, 29.	№14, 39.
25.	"Seni ishqing o'tradur jo'sh".	"Seni ishqing o'tida may o'rар jo'sh".	№14, 29.	№14, 40.
26.	"Bilib holimni qonun ko'ksin yirtor".	"Bilib holimni qonun ko'ks yirtor".	№14, 30.	№14, 41.
27.	XIV asr milodiyya Xorazm Oltun O'rдaga tobe bo'lub, shoir Xorazmda tug'ulsa ham, Saroy shaharida na'sh-u namo etmishdur.	XIV asri milodiyya Xorazmda Oltun O'rдaga tobe bo'lub, shoir Xorazmda tug'ulsa ham, Saroy shaharida na'sh-u namo etmishdur.	№15, 31.	№15, 42.
28.	"Burun so'rdi: ne yerilksan, teyusan".	"Burun so'rdi sen erliksan, teyusen".	№15, 32.	№15, 44.
29.	"Ayitti: anda ne san'at qilurlar? Ayitti: jon sotib qoyg'u olurlar".	"Ayitti: anda ne san'at qilursen? Ayitti: jon sotib qoyg'u olurmen".	№15, 32.	№15, 44.
30.	"Ayitti: roziman gar ko'zga ilsa".	"Ayitti: rohati man gar ko'zga olsa".	№15, 33.	№15, 44.
31.	XV asr milodiy mashhur kishisi bo'lgan bu kishi 1454 nchi yilda Turkistonda tug'uldi.	XV milodiy mashhur kishisi bo'lgan bu kishi 1454 nchi yilda Turkistonda tug'uldi.	№16, 33.	№16, 45.
32.	Bu vaqtida Buxoro temuriylar-dan Sulton Ahmadga tobe' bo'lub, bunda uning qo'yan hokimi – Abu Ali Torxon turor edi.	Bu vaqtida Buxoroda temuriy-lardan Sulton Ahmadga tobe' bo'lub, bunda uning qo'yan hokimi Abu Ali tarxan turor edi.	№16, 33.	№16, 45.
33.	Turkistonda biror yil turub, biror bojorolmoy, yana Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi.	Turkistonda biror yil turub biror ish bajaraolmay, yana Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi.	№16, 34.	№16, 45.
34.	1490 nchi yilda boshlab, temuriylar bilan davlat tola-shib, Muhammad Zahiriddin Boburning qo'lidan Samar-qandni oladur.	1490 nchi yildan boshlab, temuriylar bilan davlat tola-shib, Muhammad Zahiriddin Boburning qo'lidan Samar-qandni oladur.	№16, 34.	№16, 45.
35.	"Aybi may-u, ma'nii nay, so'fiy, sanga odatdur, May ichgil-u inson bo'l, qo'y so'fiy bu odatni".	"Aybu mayu ma'nii na so'fiy sanga odatdur May ichgalu inson bo'l, qo'y so'fiy bu odatni".	№16, 35.	№16, 46.
36.	"Tut jomi mayi sofiy, qo'ygil bu alomatni".	"Tut domi mayi sofiy, qo'ygil bu alomatni".	№16, 35.	№16, 46.
37.	"Ey mardumon shahar Hiro, barchangiz kerak".	"Ey mardumoni shahri Hirot barchangiz kerak".	№16, 36.	№16, 47.
38.	Afg'on qoroshli Amuning chap sohilida yashovchi hazora nomli bir qavmga g'azab ila bu tuyug'ning demishdur.	Afg'onga qarashli Amuning chap sohilida yashovchi hazora nomli bir qavmga g'azab ila bu tuyug'ning demishdur.	№16, 36.	№16, 47.

Tabdil va nashrdagi imloviy farqlar

T/r.	Qo'lyozmadagi variant	Nashrdagi variant	Qo'l.fiqrasi va sahifasi	Nashr fiqrasi va sahifasi
1.	o'rтор	o'rtar	№3, 10.	№3, 19.
2.	durorni	durarni	№3, 10.	№3, 19.
3.	ta'rif	ta'rif-u	№3, 10.	№3, 19.
4.	osh'orin	ash'orin	№3, 10.	№3, 19.
5.	Oltun o'rdali	Oltun O'rdali	№3, 10.	№3, 19.
6.	bulbuldur	bulbuldur-u	№3, 10.	№3, 19.
7.	choynor	chaynar	№3, 10.	№3, 19.
8.	tuzotur	tuzatur	№3, 10.	№3, 19.
9.	kuzotur	kuzatur	№3, 10.	№3, 19.
10.	oriflarining	oriflarinng	№3, 10.	№3, 19.
11.	xokpoyi	hokpoyi	№3, 10.	№3, 19.
12.	keturgon	keturgan	№3, 10.	№3, 19.
13.	ko'zing	ko'zung	№3, 10.	№3, 19.
14.	ustina	ustino	№3, 10.	№3, 19.
15.	olinda	olnda	№3, 11.	№3, 20.
16.	ko'rsotodur	ko'rsatadur	№4, 11.	№4, 20.
17.	orosinda	orasinda	№4, 11.	№4, 20.
18.	o'todur	o'tadur	№4, 11.	№4, 20.
19.	ko'rsotmogon	ko'rsatmagan	№4, 11.	№4, 20.
20.	bo'lub	bo'lib	№5, 11.	№5, 20.
21.	Rabg'uziydur	Rabg'tsuzyidur	№5, 11.	№5, 20.
22.	yemomishdur	yemamishdur	№5, 11.	№5, 20.
23.	yozodur	yozadur	№5, 11.	№5, 20.
24.	tasvirlanodur	tasvirlnadur	№5, 12.	№5, 21.
25.	to'p	to'r	№5, 12.	№5, 21.
26.	bo'ston	bo'ston-u	№5, 12.	№5, 21.

27.	sekrashur	sekratur	№5, 12.	№5, 21.
28.	tutor	tutur	№5, 13.	№5, 21.
29.	yashnag'oy	yashnagay	№5, 13.	№5, 21.
30.	uchmog'	uchmoq	№5, 13.	№5, 21.
31.	Oltun (O'rda)	Oltin (O'rta)	№6, 13.	№6, 22.
32.	yetti	yeti	№6, 14.	№6, 22.
33.	jonimdin	jonimdan	№6, 14.	№6, 22.
34.	Haq	haq	№6, 14.	№6, 22.
35.	ayt	ayit	№6, 14.	№6, 23.
36.	sansiz	sensiz	№6, 15.	№6, 24.
37.	yug'rildi	yo'g'rildi	№6, 15.	№6, 24.
38.	talabkor	talabgor	№6, 15.	№6, 24.
39.	yotg'oy	yotqay	№6, 15.	№6, 24.
40.	otg'oy	otqay	№6, 15.	№6, 24.
41.	mashriqidin	mashriqidn	№6, 15.	№6, 24.
42.	Yunaqiy	Yunakiy	№7, 16.	№7, 25.
43.	"Hibbatu-l-haqoyiq"	"Aybatu-l-haqoyiq"	№7, 16.	№7, 25.
44.	axloqqa	ahloqqa	№7, 16.	№7, 25.
45.	"Qudotqu bilik"	"Qutadg'u bilik"	№7, 16.	№7, 25.
46.	kitobi	kitobiga	№7, 16.	№7, 25.
47.	foidalangani	foydalangani	№7, 16.	№7, 25.
48.	tolifi	ta'rifi	№7, 16.	№7, 25.
49.	qalikli	qaliyni	№7, 16.	№7, 25.
50.	qolsu	qilsu	№7, 16.	№7, 25.
51.	dudi	davri	№7, 16.	№7, 25.
52.	ochun	ojun	№7, 16.	№7, 25.
53.	bazadim	bozadim	№7, 16.	№7, 25.
54.	muva'az	muazzaz	№7, 16.	№7, 25.
55.	bu kishi	—	№8, 17.	№8, 26.
56.	o'g'uz	O'g'uz	№8, 17.	№8, 26.
57.	shayxliq	shayxlik	№8, 17.	№8, 26.
58.	savdo-sanoat	savdo sinoat	№8, 17.	№8, 26.
59.	Rivojlanib	Rivojlanib	№8, 17.	№8, 26.
60.	—	kabi	№8, 17.	№8, 26.
61.	qolmamish	holmamish	№8, 17.	№8, 26.
62.	Qazon	Qozon	№8, 17.	№8, 26.
63.	tifografiyada	tipografiyada	№8, 17.	№8, 26.
64.	bo'l mish	o'l mish	№8, 17.	№8, 26.
65.	Xoja	Hoja	№8, 17.	№8, 26.
66.	Amir Temur	Amir Temir	№8, 18.	№8, 27.
67.	Iroqqa	Iroqa	№8, 18.	№8, 27.
68.	"Mus'hafi Usmoniy"	"Musxofi Usmoniy"	№8, 18.	№8, 27.
69.	nor-u saqar	nori sahar	№8, 18.	№8, 27.
70.	do'zax	do'zah	№8, 18.	№8, 27.
71.	ko'r moy	ko'r may	№8, 18.	№8, 27.
72.	haqqi	huqqa	№8, 18.	№8, 27.
73.	qah-qah	qahqah	№8, 18.	№8, 27.
74.	qo'r qub	qo'r qib	№8, 18.	№8, 27.
75.	sanga	senga	№8, 18.	№8, 27.
76.	solmos	solmas	№8, 18.	№8, 27.
77.	Haqqa	haqqa	№8, 18.	№8, 27.
78.	koshg'arlidur	Qoshg'arlidur	№9, 19.	№9, 28.
79.	torixida	trixida	№9, 19.	№9, 28.
80.	turodur	turadur	№9, 19.	№9, 28.
81.	asarining	asarning	№9, 19.	№9, 28.
82.	asr	asri	№9, 19.	№9, 28.
83.	o'shal	o'gshal	№9, 19.	№9, 28.
84.	tillariningga	tillarinigina	№9, 19.	№9, 28.
85.	"O'zbek poeziyasining antalo'giyasi"	"O'zbek poeziyasining antalogiyasi"	№9, 19.	№9, 28.
86.	qisqortib	qisqartib	№9, 19.	№9, 28.
87.	qamug'	qomug'	№9, 19.	№9, 28.
88.	qayg'uq	kayg'uq	№9, 19.	№9, 28.
89.	o'krashur	o'krashdi	№9, 19.	№9, 28.
90.	o'ynoy	o'ynay	№9, 19.	№9, 28.
91.	tanglashu	tinglashu	№9, 19.	№9, 29.
92.	ko'kror	ko'krar	№9, 19.	№9, 29.
93.	mangrashu	mungrashu	№9, 19.	№9, 29.
94.	sholdirob	shildirab	№9, 19.	№9, 29.
95.	shovqin	shavqin	№9, 20.	№9, 29.
96.	oqlanub	oklanub	№9, 20.	№9, 29.

97.	o'qdanub	o'qdanub	№9, 20.	№9, 29.
98.	angrashur	ingrashur	№9, 20.	№9, 29.
99.	ma'nisi	ma'nosi	№9, 20.	№9, 29.
100.	oqorib	oqarib	№9, 20.	№9, 29.
101.	boshlaydi	boshladi	№9, 20.	№9, 29.
103.	oppoq	opoq	№9, 20.	№9, 29.
104.	qoro	qora	№9, 20.	№9, 29.
105.	keladi	kkeladi	№9, 20.	№9, 29.
106.	manga	mnga	№9, 20.	№9, 29.
107.	ko'zim	ko'zum	№9, 20.	№9, 29.
108.	bilmaydilar	bilmaydur	№10, 21.	№10, 30.
109.	turkiy (o'zbek)	turkiy-o'zbek	№10, 21.	№10, 30.
110.	ishqiy-ro'montik	ishqiy-romantik	№10, 21.	№10, 30.
111.	ko'rsatilodur	ko'rsatiladi	№10, 21.	№10, 30.
112.	qo'yulmishdur	qo'yulmushdur	№10, 21.	№10, 30.
113.	hammaga	hamaga	№10, 21.	№10, 30.
114.	oluftasen	olufta sen	№10, 22.	№10, 31.
115.	nosih-u	nosih-o'	№10, 22.	№10, 31.
116.	xosi	xos	№10, 22.	№10, 31.
117.	dardso'z	dardu so'z	№10, 22.	№10, 31.
118.	fichoq	pichoq	№10, 22.	№10, 31.
119.	sarv	sarvi	№10, 22.	№10, 31.
120.	bo'yun	buyun	№10, 22.	№10, 31.
121.	nargis	nargiz	№10, 22.	№10, 31.
122.	Yusuf Siddiqki	Yusufi Siddiq	№10, 22.	№10, 31.
123.	alarga	aldarga	№10, 22.	№10, 31.
124.	barchaki	barcha ki	№10, 22.	№10, 31.
125.	kuymoy	kuymay	№10, 22.	№10, 32.
126.	subh shom	subh-u shom	№10, 22.	№10, 32.
127.	xonimon	xonumon	№10, 22.	№10, 32.
128.	tug'il mish	tug'il mish	№11, 23.	№11, 32.
129.	Mirzoning	mirzaning	№11, 23.	№11, 32.
130.	qoytib	qaytib	№11, 23.	№11, 32.
131.	o'tkazib	o'tkarib	№11, 23.	№11, 32.
132.	qasabada	kasabada	№11, 23.	№11, 32.
133.	podshosi	podshohi	№11, 23.	№11, 32.
134.	qutqor	qutqar	№11, 24.	№11, 33.
135.	yolbordim	yalbardim	№11, 24.	№11, 33.
136.	yorotdi	yorotdi	№11, 24.	№11, 33.
137.	Xudo	xudo	№11, 24.	№11, 33.
138.	sani	seni	№11, 24.	№11, 33.
139.	ondin	andin	№11, 24.	№11, 33.
140.	vasl	vasli	№11, 24.	№11, 33.
141.	xoksorim	hoksorim	№11, 24.	№11, 33.
142.	ahd	ahdi	№11, 24.	№11, 34.
143.	tug'ulish	tug'ilish	№12, 25.	№12, 34.
144.	bo'lub	bo'lib	№12, 25.	№12, 34.
145.	kishidir	kishidur	№12, 25.	№12, 34.
146.	tubondagi	tubandagi	№12, 25.	№12, 34.
147.	aysh	ayshi	№12, 25.	№12, 35.
148.	jo'o'r	jo'r	№12, 25.	№12, 35.
149.	shevachi	shevacha	№12, 26.	№12, 35.
150.	kulgu	kulku	№12, 26.	№12, 35.
151.	Xaybar	xaybar	№12, 26.	№12, 36.
152.	yoqut	yoquti	№12, 26.	№12, 36.
153.	siyb	siybi	№12, 26.	№12, 36.
154.	xoqon	xoqon-u	№12, 26.	№12, 36.
155.	dohiy	dohi	№12, 26.	№12, 36.
156.	yongi	yangi	№12, 26.	№12, 36.
157.	Akbar	aqbar	№12, 26.	№12, 36.
158.	doi'y-u	doiyi	№12, 26.	№12, 36.
159.	guluzorisan	gul uzori san	№12, 26.	№12, 36.
160.	edi	erdi	№13, 27.	№13, 36.
161.	istihoralar	istioralar	№13, 27.	№13, 37.
162.	uchroydirki	uchraydurki	№13, 27.	№13, 37.
163.	ko'zlarni	ko'zlrni	№13, 27.	№13, 37.
164.	sen	san	№13, 27.	№13, 37.
165.	ko'rub	ko'rib	№13, 27.	№13, 38.
166.	ong'ib	ang'ib	№13, 28.	№13, 38.
167.	kechdi	kechti	№13, 28.	№13, 38.

168.	ko'ngilliq	ko'ngilik	№13, 28.	№13, 38.
169.	Sakkokiy	Sakkoiy	№13, 28.	№13, 38.
170.	so'rmoyn	so'rmayin	№13, 28.	№13, 38.
171.	yo'qdur	yo'qtur	№13, 28.	№13, 38.
172.	tug'ulib	tug'iib	№14, 28.	№14, 38.
173.	taxallusli	taxallusi	№14, 28.	№14, 38.
174.	soqlanib	saqlanib	№14, 28.	№14, 38.
175.	ko'b	ko'p	№14, 28.	№14, 39.
176.	ko'rush	ko'rushi	№14, 28.	№14, 39.
177.	ishq	ish	№14, 28.	№14, 39.
178.	ko'rsotish	ko'rsatish	№14, 28.	№14, 39.
179.	base	basi	№14, 29.	№14, 39.
180.	dilafgor	dilafkor	№14, 29.	№14, 39.
181.	tutoshib	tutashib	№14, 29.	№14, 39.
182.	yuvub	yub	№14, 29.	№14, 39.
183.	topormen	toparmen	№14, 29.	№14, 40.
184.	Eram	Erom	№14, 29.	№14, 40.
185.	arz	arzi	№14, 29.	№14, 40.
186.	hol	holi	№14, 29.	№14, 40.
187.	mushfiqimdur	mushfikimdur	№14, 29.	№14, 40.
188.	mani	meni	№14, 30.	№14, 40.
189.	uzotib	uzatib	№14, 30.	№14, 40.
190.	musiqor	musihor	№14, 30.	№14, 41.
191.	borcha	barcha	№14, 30.	№14, 41.
192.	aqiqi	aqiqa	№14, 30.	№14, 41.
193.	kerakkim	kerakim	№14, 30.	№14, 41.
194.	dunyoyi	dunyoi	№14, 30.	№14, 41.
195.	kiro	kira	№14, 30.	№14, 41.
196.	o'g'ullari	o'g'illari	№15, 31.	№15, 42.
197.	dostonning	dostonining	№15, 31.	№15, 42.
198.	qimmatli	qiymatli	№15, 31.	№15, 42.
199.	adabiyotidin	dabiyotidan	№15, 31.	№15, 42.
200.	muhimdir	muhimdir	№15, 31.	№15, 42.
201.	ko'ngilda	ko'ngulda	№15, 31.	№15, 43.
202.	andisha	andija	№15, 31.	№15, 43.
203.	halvo	xalvo	№15, 32.	№15, 43.
204.	bu	bo'	№15, 32.	№15, 43.
205.	ko'ldin	qo'ldin	№15, 32.	№15, 43.
206.	oyur	ayur	№15, 32.	№15, 43.
207.	tirik	tirish	№15, 32.	№15, 43.
208.	baladim	boddim	№15, 32.	№15, 43.
209.	dialo'gning	dialogning	№15, 32.	№15, 43.
210.	shahridanman	shahridin men	№15, 32.	№15, 44.
211.	ko'rursan	ko'rursen	№15, 32.	№15, 44.
212.	sig'mos	sig'mas	№15, 32.	№15, 44.
213.	bale	bali	№15, 33.	№15, 44.
214.	Xisrav	Xusrav	№15, 33.	№15, 44.
215.	kanididat	kandidan	№15, 33.	№15, 44.
216.	Homiduf H.	Homidov H.	№15, 33.	№15, 44.
217.	foidalandim	foydalandim	№15, 33.	№15, 44.
218.	otoqli	atoqli	№16, 33.	№16, 44.
219.	temuriylardan	Temuriylardan	№16, 33.	№16, 45.
220.	torixiy	tarixiy	№16, 33.	№16, 45.
221.	sarkarda, shoirdur	Sarkarda va shoirdur	№16, 33.	№16, 45.
222.	tug'uldi	tug'ildi	№16, 33.	№16, 45.
223.	Shohbudog'	shoh Budog'	№16, 33.	№16, 45.
224.	Abu Ali Torxon	Abu Ali tarxan	№16, 33.	№16, 45.
225.	turor	turar	№16, 33.	№16, 45.
226.	ilm	ili	№16, 34.	№16, 45.
227.	Dashti Qipchoqga	Dashti Qipchoqqa	№16, 34.	№16, 45.
228.	bojorolmoy	bajaraolmay	№16, 34.	№16, 45.
229.	xizmatda	xizmtda	№16, 34.	№16, 45.
230.	o'tmoy	o'tmay	№16, 34.	№16, 45.
231.	Toshkand	Toshkant	№16, 34.	№16, 45.
232.	yordom	yordam	№16, 34.	№16, 45.
233.	idorasida	urushida	№16, 34.	№16, 45.
234.	na'shidai ta'bidandur	nashida ta'bidandur	№16, 35.	№16, 46.
235.	tortormen	tortarmen	№16, 35.	№16, 46.
236.	ne	na	№16, 35.	№16, 46.
237.	so'fiyga	sufiya	№16, 35.	№16, 46.

238.	shayx	shayxi	№16, 35.	№16, 46.
239.	Baddi'uzzamon	Badiyyuzzamon	№16, 36.	№16, 47.
240.	Astrobodga	Astrabodga	№16, 36.	№16, 47.
241.	shahar	shahari	№16, 36.	№16, 47.
242.	biza	bizga	№16, 36.	№16, 47.
243.	mutoyiba	mutoala	№16, 36.	№16, 47.
244.	so'zlashni	so'yashni	№16, 36.	№16, 47.
245.	qoroshli	qarashli	№16, 36.	№16, 47.
246.	yoshovchilariga	yashavchilariga	№16, 36.	№16, 47.
247.	uchundur	uchundir	№16, 36.	№16, 47.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Tazkirai Qayyumiylar" o'zbek adabiyoti tarixi hamda u bilan doimiy chambarchas aloqada bo'lgan fors-tojik adabiyoti vakillari haqidagi unikal ma'lumotlar bera olishi bilan adabiyotshunoslik fanida muhim manbalardan biridir. Asarning yagona nusxasi uzoq yillarda davomida adabiyotshunos olim A.Qayumovning shaxsiy kutubxonasida saqlangan. Keyinchalik, olim tomonidan O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyiga topshirilgan. Hozirda ushbu muzeyning qo'lyozmalar fondida №734 inventar raqami ostida

saqlanmoqda. Tazkira tabdili 1996-yilda muallifning o'g'li, akademik Aziz Qayumov tomonidan tugallangan. 1998-yilda esa nashr qilingan. Biroq, qo'lyozma va nashr o'rtaida farqli jihatlar talaygina. Ularning matniy-qiyosiy tadqiqini amalga oshirish foydadan holi bo'lmaydi. Qolaversa, tazkirada keltilrilgan shoirlarning she'rlari matnini ushbu shoirlarning devon, hamda to'plamlaridan joy olgan variantlari o'rtaida matniy-qiyosiy tadqiqini amalga oshirish ham matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasi vakillari oldida turgan galddagi vazifalardan biridir.

Foydalananligan adabiyotlar:

1. Po'latjon domulla Qayyumiylar. Tazkirai Qayyumiylar (qo'lyozma), 1960.
– T.: O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi
qo'lyozmalar fondi, №734.
2. Po'latjon domulla Qayyumiylar. Tazkirai Qayyumiylar (nashrga tayyorlovchi Qayumov A.). – T.: O'zR FA Qo'lyozmalar instituti
tahriri nashriyot bo'limi, 1998. 713 bet.

**QO'QON UNIVERSITETI
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА**

5 / 2022

ISBN: 2181-1695

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 28-dekabr.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»
garniturasi. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.
Buyurtma rakami № . Baxosi shartnomaga asosida.
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida
chop etildi.



OJS
OPEN
JOURNAL
SYSTEMS

